

IFRS” HOMLI
KONFERENCIYA

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЙЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ
ИҚТИСОДИЁТНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАР
“Глобал ва миллий
иқтисодий трендлари”

ERENCE

19-20
OCTOBER

ФОРУМ

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS
AND ICDSIS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS

NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”

CONFERENCE
“IFRS”

GLOBAL
ECONOMIC
TRENDS”
2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL

“IFRS”

HOMLI

KONFERENCIYA

МЛМ
ИЦМЯ

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

2023

ILMIY ELEKTRON JURNAL

MAXSUS SON

ФОРУМ

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS

AND ICDSIS”

РАҚАМЛИ ИҚТИСО
АХБОРОТ ТЕХНОЛ
ВА ТАЪЛИМНИНГ
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎН
“NEW2AN, ICFNDS,
номли параллель
конференциялар

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

laboreconomics.uz

“**Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali**” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.
Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998 (99) 881-86-98.

TOSHKENT-2023

EDITORIAL BOARD | TAHRIRIYAT KENGASHI

Tahririyat Kengashi raisi: (Chairman of the Editorial Board)

Abdurahmanov Qalandar Xodjayeovich, O‘zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a‘zolari: (Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich,
i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich,
i.f.d., prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich,
t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich,
i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich,
i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich,
i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich,
i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich,
i.f.d, prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,
i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po‘latovich,
i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna,
i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich,
i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich,
i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayev,
i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich,
i.f.f.d., (PhD), dots.

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich,
i.f.f.d., (PhD), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich,
i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a‘zolari:
(Community Council members)

Bred Bodenzauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich
(Rossiya Federasiyasi)

Keynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)



Mas‘ul muxarrir (Editor-in-Chief):

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin):

Musayev Xurshid Sharifjonovich



MUNDARIJA (CONTENTS)

MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI

Q.X. Abdurahmonov S.B. G'oyipnazarov	Сунъий интеллектни жорий этиш натижасида меҳнат бозоридаги ўзгаришлар	6–12
R.I. Nurimbetov A.M. Ismailov	O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishi va aholi bandligini manfaatdorlik indeksi asosida baholash	13–21
N.T. Shayusupova S.S. Amirdjanova	Прогнозирование макроэкономических показателей роста экономики и занятости населения республики	22–29
I.A. Bakiyeva	Тошкент вилоятида ишсизларни замонавий касб-ҳунарга ўқитишни самарали ташкил этиш йўллари	30–34
S.I. Sotnikova	Наемный труд: институциональные эффекты неравновесной экономики .	35–41
A.S. Usmanov M.A. Bahridinova	Qashqadaryo viloyatida bandlikning tarmoq tuzilishidagi o'zgarishlar va uning aholi turmush farovonligiga ta'siri	42–48
X.F. To'xtayeva	Туристик хизматлар бозорида бандликни тартибга солиш ва бошқариш бўйича илғор хорижий тажрибалар	49–56
B.Z. Ganiyev	O'zbekiston hududlarida bandlikning iqtisodiy o'sishga nisbatan elastikligi tahlili	57–61

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

S. Sotnikova N. Sotnikov	Ecology of the employee's career based on the concept of time management .	62–70
A.N. Turayev B.B. Suvonov	Направления развития анализа затрат труда в хозяйствующих субъектах	71–76
B.B.Suvonov	Зарубежный опыт анализа показателей затрат труда в хозяйствующих субъектах	77–82
Z.M. Xasanova	Enhancing economic education and human resources management: a study of innovative approaches in Uzbekistan's higher education institutions	83–91
R.R. Oqmulloyev	Инсон ресурсларини бошқариш — олий таълим муассасаларининг глобал рақобатбардошликка эришиш омили	92–102
B.B. Mardonov	Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini baholash	103–108
M.Sh. Xaydarova	Использование искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами	109–123

INSON KAPITALI

A. Zikriyoyev D. Khojamqulov M. Raimjanova N. Turayev A. Abdullayev	Human capital development in the context of health and safety regulation: policy analysis in construction industry	124–138
A. Zikriyoyev M. Farmonova Ch. Keldiyorova D. Nekboyev O. Murodova	Orientation / induction day as a remedy for human capital investment at higher education	139–150
A.S. Boltayev Y.M. Otaboyev	The impact of health and education expenditure on economic growth in case of Uzbekistan	151–163
O.A. Eshbayev	Strategic integration of emerging technologies in engineering education: a holistic approach to cultivate human capital for the digital economy	164–169

A.O. Jumanov R.A. Omirzakov	Innovative environmental education in higher education: fostering sustainable mindsets for a greener future	170–175
I.Sh. Khadjiyeva	School climate quality and education quality: evidence from 15 worst performing nations at PISA 2018	176–187
M.O. Kurolov	Leveraging digital healthcare marketing strategies to enhance social welfare through human capital development	188–192
M. Numanova F. Khakimov	Priorities for the development of national human capital in the economy	193–198
M.X. Xo‘jayeva	Properties of innovative activity in the education system of Uzbekistan	198–203
H.T. Yaxshiyev	Mehmonxona hamda restorani biznesi faoliyati tushunchasi va mohiyati	204–206
X.B. Nasriddinov	O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta‘lim metodlaridan foydalanish	207–210
Sh.Y. Sharobiddinov	Investing in human capital: a comparative analysis of democratic and authoritarian regimes	211–220
Z.M. Xasanova	Comparative analysis of innovative education management strategies for economic education and green development: lessons from foreign countries	221–228
S.R. Xolbayeva	Трансформация системы подготовки кадров в целях повышения эффективности функционирования человеческого капитала в экономической системе	229–238
INSON TARAQQIYOTI		
Sh.U. Jo‘rayeva	Socio-economic significance and analysis of the standard of living of the population	239–244
N.M. Khazratkulova	The impact of inter-budgetary relations on regional growth and the standard of living of the population of the regions (on the example of the republic of Uzbekistan)	245–250
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARITRISH		
G.Q. Abduraxmonova M.X. Fayziyeva Sh.Q. Xoliyorova	O‘zbekiston davlat ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashda raqamli rivojlanishning o‘rni	251–261
GENDER TENGLIK		
G.Q. Abruraxmonova N.U. Khalimjonov	Gender inequality in labour market	262–268
MUNOSIB MEHNAT		
Sh.X. Raxmatullayeva	Milliy korxonalarda mehnat samaradorligining muhim ko‘rsatkichlarini baholash tizimini imkoniyatlari	269–275
Z.U. Usmonov	Ko‘zi ojiz shaxslarni ish bilan ta‘minlashning obyektiv zarurligi	276–283
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
L.F. Amirov	Современные тенденции развития аграрного сектора Республики Узбекистан	284–293
I. Khotamov A. Kasimov Y. Najmiddinov G. Yuldashev	The current importance of alternative energy and renewable energy in Uzbekistan	294–317
Z.T. Abdurakhmanova	Factors affecting sustainable agriculture and food production in Uzbekistan	318–328
J.X. Ishanov	Determination of hydraulically acceptable length of drip irrigation pipe	329–334

U.Sh. Duskobilov	Influence of monetary policy instruments on macroeconomic stability during the transition to inflation targeting in Uzbekistan	335–342
Sh.D. Ergashkhodjayeva E.Y. Khojiyev	The EU’s generalised system of preferences: impact on foreign trade of domestic products	343–348
O.A. Eshbayev	Exploring synergies: redefining engineering education management for industry 4.0 in the digital economy era	349–354
H.B. Haydarov	O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning tutgan o‘rni	355–361
M.R. Khidirova	Improving the efficiency of corporate governance based on the modeling of agricultural machinery enterprises	362–369
B.N. Ishniyazov	Analysis of the activities of innovation of the agricultural sector of our country	370–374
N.N. Ismoilov	Implementing SDGS (sustainable development goals) in small business entities	375–380
N.S. Karimova	O‘zbekistonda klasterlar faoliyatini tashkil etish mexanizmi	381–385
M.R. Khayitova	The essence of green loans in a global unstable environment	386–391
S.B. Maxmudov	Milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlilini baholash	392–401
Y.F. Najmiddinov	Initial efforts to develop green energy and green growth in Uzbekistan	402–407
Ch.G. Nosirova	Developing sustainable pathways for textile product exports: a green strategy approach to enhance social welfare	408–415
N. Khalimjonov P. Allayarov	The gravity trade model for Uzbekistan	416–424
D. Usmonova	Evaluating the role of marketing strategies in fostering the growth of viticulture enterprises for achieving sustainable agricultural development	425–431
МАКРОИҚТИСОДИЙОТ		
A. Valiyeva	Assessing the impact of sustainable agricultural practices on legume market dynamics: a comprehensive marketing research analysis	432–440
V.K. Yarashova	The mutual influence of transport on macroeconomic indicators in Uzbekistan	441–447
M.S. Yusupov G.T. Ismoilova	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirida agrosanoat klasterlarining ahamiyati va rivojlantirish imkoniyatlari	448–459
M.T. Abdurahmanova M.M. Ismailova	Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишнинг хориж тажрибасини такомиллаштириш	460–465
N.B. Achilova	Сущность и значение национального брендинга стран в условиях глобализации	466–474
J.N. Bayisbayev	Мамлакатимизнинг тадбиркорлик субъектларини ижтимоий фаолиятини қўллаб-қувватлашдаги иштироки	475–481
A. Valiyeva	Оценка роли устойчивых методов ведения сельского хозяйства в повышении конкурентоспособности рынков бобовых: глобальный маркетинговый анализ	482–490
F.R. Bobobekov	Мақроқиқтисодий барқарорлик шароитида факторингга таъсир этувчи омиллар	491–497
D.B. Xajiyev	Даромадларни қайта тақсимлаш жараёнларини тартибга солишнинг фискал воситалари	498–504



O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Nasriddinov Xasan,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta'lim metodlaridan foydalanishning imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. kreativlik, kreativ fikrlash, ijodiy potensial, pedagogik texnologiya, ta'lim metodlari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Насриддинов Хасан,

ТГЭУ, Соискатель.

Аннотация. в данной статье описаны возможности использования методов обучения в развитии креативного мышления учащихся в образовательном процессе.

Ключевые слова. креативность, креативное мышление, творческий потенциал, педагогическая технология, методы обучения.

USE OF EDUCATIONAL METHODS IN DEVELOPING CREATIVE THINKING OF STUDENTS

Nasriddinov Hasan,

Researcher of TSUE.

Abstract. this article the possibilities of using pedagogical technologies in the development of creative thinking in the learning process.

Key words. creativity, creative thinking, creative potential, educational technology, teaching methods.

Kirish:

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bu ta'lim oluvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida pedagogdan mazkur vazifani hal etish uchun turli metodlardan samarali foydalanish lozimligini taqozo etadi.

Kreativlik tushunchasi uzoq yillar mobaynida olimlarni ham qiziqtirib, ham munozaralarga chorlab kelgan. Kreativlikni ta'riflashga bo'lgan yondashuvlar o'zgarib borgan, yangicha nuqtai nazarlar vujudga kelgan, ammo uning dolzarbligi kamaymagan. Sababi bu tushuncha insoniyatning intellektual potensialini shakllanishi bilan bog'liqdir. Ko'pchilik psixologlar kreativlik qobiliyatini avvalombor fikrlashning o'ziga xosligi bilan bog'laydilar. Umumiy ma'noda fikrlash voqelikni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishdir; narsa va hodisalarning mohiyatini bilishdan iborat aqliy faoliyat turi, shuningdek ular o'rtasidagi doimiy aloqalar va munosabatlardir. Ilmiy adabiyotlarda fikrlash turlarini tasniflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, tafakkurni hal etilayotgan muammoning yangiligi, o'ziga xosligi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, uning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Ijodiy fikrlash (produktiv, divergent, kreativ);

Har tomonlama fikrlash (reproduktiv, konvergent).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Psixolog J.Gilford kreativlikning rivojlanish darajasi fikrlashda to'rtta xususiyatning ustanligi bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Psixolog P.Torrens kreativlikning quyidagi tasnifini keltirib o'tadi: verbal kreativlik; obrazli kreativlik; alohida kreativlik qobiliyatlari: ravonlik, egiluvchanlik, orginallik, muammoning asl mohiyatini ko'rish qobiliyati, stereotiplarga qarshi turish qobiliyati.

Amerikalik tadqiqotchi E.De Bono kreativ fikrlashni rivojlantirishning tamoyillarini shakllantirgan.

Kreativ fikrlashni shakllantirish bo'yicha zamonaviy tadqiqot manbalari quyidagi yo'nalishlarni aniqlashga imkon beradi:





► **Inson kapitali**

1. Shaxsning ijodiy tafakkurini shakllantirish uchun ijtimoiy tajribaning barcha elementlarini – bilimlarni, faoliyat usullarini, ijodiy faoliyat usullarini, olamga munosabatning emotsional-qadriyatli munosabat tajribasini o‘zlashtirish muhimdir;

2. Ijodiy fikrlash tafakkur strategiyasining samarali-mantiqiy va hissiy-obrazli komponentlarining uyg‘unlashuvi asosida amalga oshadi;

3. Ijodiy fikrlash ongli va ongsiz (intuitsiya) komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bunda ongsiz komponentning elementlari ma‘lum his-tuyg‘ular va sezgilardan iboratdir.

4. Ijodiy fikrlash ijtimoiy pozitivlik va o‘z-o‘zini takomillashtirish istagiga xosdir. Bu esa bolalarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yaxlit dunyoqarashni shakllantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish va ijtimoiy o‘zini-o‘zi anglash istagini rivojlantirish uchun diqqatini qaratish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur tadqiqot davomida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta‘lim metodlaridan foydalanishning imkoniyatlarini yoritib beruvchi adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari:

Shaxsning ijodiy potentsiali va kreativ fikrlashi quyidagi ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- Muammolar va qarama-qarshiliklarni mustaqil ko‘rishi;
- Har qanday muammoni shakllantirish va tahlil qilish, ularga yechim topish ko‘nikmasi;
- Bilim, ko‘nikma va malakalarni, o‘quv faoliyati usullarini yangi o‘quv vaziyatlariga qo‘llay bilishi;
- Tanish ob‘ektlarning yangi tomonlarini ko‘ra bilish ko‘nikmasi;
- Ilgari o‘zlashtirilgan faoliyat usullarini yangilari bilan uyg‘unlashtirish, sintezlash ko‘nikmasi va boshqalar.

Shaxsning kreativ fikrlashini rivojlantirishning quyidagi texnologiyalari eng samarali hisoblanadi: Faol o‘qitish texnologiyasi (sinektika metodi, morfologik tahlil metodi, guruhli munozara, aqliy hujum va boshqalar);

Ijodiy loyihalash texnologiyasi;

Tadqiqotchilik foyiyati texnologiyasi;

Ixtirochilik masalalarini yechish texnologiyasi (TRIZ);

Ijodiy topshiriqlarni yechish texnologiya;

Interfaol o‘yin texnologiyalari (treninglar);

O‘yin texnologiyalari (ishbilarmonlik, rolli, imitatsion o‘yinlar);

artefakt-pedagogika va boshqalar.

“Aqliy hujum” va “sinektika” metodlari psixologik zo‘riqishni yo‘qotish imkonini beradi va qisqa vaqt ichida maksimal miqdordagi yangi g‘oyalarni olish imkonini beradi. “Aqliy hujum” metodi eng aql bovar qilmaydigan, hatto kulgili fikrlarni bayon etish, muhokama davomida ularni tahlil qilish va tuzatish, amalga oshirish yo‘llarini topish imkonini beradi.

“Sinektika” metodi (muallif Uilyam J.Gordon) ijodkorlikning ikkita turini ajratishga asoslangan:

operativ bo‘lmagan (boshqarilmaydigan) – intuitsiya, ilhomlanish;

operativ (boshqariladigan) – turli xil analogiyalardan foydalanish.

Agar bolalarning turli analogiyalarni qo‘llashga maqsadga muvofiq o‘rgatilsa, ularning ijodiy fikrlashini ham faollashtirish mumkin. Buning uchun dastlab o‘quvchilarni ijodiy usullarga, eng avvalo – analogiyaning turli: to‘g‘ri, fantastik, ramziy va boshqa shakllariga o‘rgatish lozim. Maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat natijasida o‘quvchilar tevarak atrofdagi qarama-qarshiliklarni sezishni o‘rganadilar va ularni yechimini topishga harakat qiladilar.

Tushunish bosqichi yangi materiallarni kiritilishini o‘z ichiga oladi.



So'nggi bosqich – refleksiya (fikrlash) – muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan unda ijodiy rivojlanish, o'zlashtirilgan axborotlarni tushunish ro'y beradi.

O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning yana bir shartlaridan biri ta'lim jarayoniga interfaol texnologiyalarni joriy etish bo'lib, u o'quvchilarning o'zaro bir biriga ta'sir etish imkonini beradi. Interfaol texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin: interfaol ma'ruza, juftliklarda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, trening mashg'ulotlar va boshqalar.

Faol ta'lim texnologiyalari o'quvchining bilish faoliyatini rag'batlantiradigan, har bir o'quvchini aqliy va xulq-atvor faoliyatiga jalb qiladigan metodlarni o'z ichiga oladi.

Ular har bir o'quvchi tomonidan mavjud bilimlarni tushunish, ishlab chiqish, boyitish va qabul qilishga qaratilgan. O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning eng samarali texnologiyalaridan biri bu TRIZ-pedagogika. TRIZ-pedagogikaning asosiy maqsadi - o'quvchilarni ochiq (evristik, ijodiy, hayotiy) masalalarni yechishga o'rgatishdan iborat. Ochiq masalalar bolalarni kreativ, tizimli, mantiqan fikrlash, maktab fanlarini o'rganishda o'zaro bog'lanishni ko'rish va olamni anglashga imkon beradi.

Kreativlikni rivojlantirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri evristik metodlarni qo'llash hisoblanadi. Tavsiya etilgan evristik metodlarning birinchi guruhiga o'quvchilarning muammoni ko'rish va shakllantirish, uning yechimini topish va topilgan yechimni tekshirish qobiliyati bilan bog'liq usullar kiradi. Ushbu metodga inversiya usuli, ko'p o'lchovli matritsalar usuli, uyushgan strategiyalar usuli va boshqalar kiradi.

Ikkinchi guruhga yechimni izlab topish bosqichiga mos keladigan evristik usullar kiradi, bunda muammoni hal qilishga qaratilgan texnologiyalarni tanlash va yoki qidirish amalga oshiriladi. Buning natijasida o'quvchilarda turli g'oyalarni generalizatsiyalash va ishlab chiqish qobiliyati, ya'ni kreativlik sifatleri: ravonlik, egiluvchanlik va original fikrlash, g'oyalarni batafsil qayta ishlash qobiliyati rivojlanadi. Mazkur guruhga aqliy hujum va uning ma'lum modifikatsiyalari (qaytar aqliy hujum, individual aqliy hujum va boshqa) kiradi.

Yechimni tekshirish bosqichiga muvofiq keladigan uchinchi guruh metodlariga qo'llanilgan texnologiya vositalarining imkoniyatlari va funksiyalarini taqqoslash orqali ularning samardorligini tahlil qilish qobiliyati bilan bog'liq usullar kiradi, ya'ni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati kabi sifatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Bu metodlarga evristik savollar va evristik kuzatish usullarini kiritish mumkin.

Loyiha texnologiyasi an'anaviy ravishda ijodiy va izlanish xarakteridagi muammolarni hal qilish, kreativ fikrlashning asosi bo'lgan vazifaga muvofiq o'quv faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Va aynan loyiha jarayonida o'quvchilar natijaga erishish usullari samardorligini baholash, optimal variantni tanlash va o'z tanlovini izohlashga o'rganadilar.

Loyiha faoliyatini rejalashtirishning o'zi o'quvchilarni maqsadlarni belgilash, o'quv loyihagini amalga oshirish vaqtida o'quv jarayonini tahlil qilish hamda boshqarish va uni yakunida mulohaza yuritishda hamkorlikdagi faoliyatga jalb qilishga qaratilgan.

O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatlilaridan biri – bu ijodiy jarayonni muayyan vizualizatsiya usullari, masalan, infografikadan foydalanish bilan birga olib boriladigan usullardir. Infografikadan foydalanishning didaktik samarasi avvalombor, ishtirokchilarning barcha kommunikativ va bilish faoliyati belgisi-ramziy xarakterga egaligi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, vizual tasvirlar so'zga qaraganda mustahkamroq ongga ta'sir etadi va unda saqlanib qoladi. Ta'lim jarayonida axborot uzatilishining verbal shaklidan ramziy (simvollar, grafiklar, fotosuratlar, rasmlar va boshqalar) shaklga o'tkazilishining maqsadga muvofiqligi shu bilan tushuntiriladi. Shuningdek, kreativ fikrlashning rivojlanishi, har qanday aqliy operatsiyalar (taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, tartiblash, tizimlashtirish, tasniflash va b.) axborotlarni vizual idrok etishning eng oddiy operatsiyalariga asoslanadi va ularsiz amalga oshirilmaydi. Bu jihatda infografikani o'rganishni tashkil etish unda qo'llaniladigan tasvirlarni izohlash usullarini egallash (turli ramziy belgilar: grafiklar, sxemalar, diagrammalar va boshqalarga ega bo'lgan mavjud modellarni verbal darajaga o'tkazish) ning samardorligi juda muhimdir. O'quvchilarning kreativ faoliyatining kvintessensiyasi infografikani, masalan, qandaydir o'quv faoliyatining natijasi bo'yicha yoki loyihaviy faoliyat natijasining va mahsuli sifatida yaratish hisoblanadi.

Ta'lim muassasida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha sharoitlar yaratish, ularning kreativligini rivojlantirish bo'yicha maqsadli faoliyatni o'z ichiga olgan moslashuvchan ko'p bosqichli tizim yaratilishi lozim.



► **Inson kapitali**

Davrning yangi muammolarining paydo bo‘lishi ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida ta’lim mazmuni, uni amalga oshirish sharoitlari va natijalariga yangidan-yangi talablarni qo‘yadi.

Tahlil va natijalar:

Kreativ fikrlashni shakllantirish faqat sinf-dars tizimi asosida, hatto turli innovatsion pedagogik modellar va texnologiyalarni faol tatbiq etilgan taqdirda ham mumkin emas. Shuning uchun o‘quvchining ta’limiy natijasi darsdan tashqari faoliyat dasturini ishlab chiqish uchun mazmuniy va mezoniy asos hisoblanadi. Darsdan tashqari faoliyat shaxsni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha (ma’naviy-ma’rifiy, jismoniy-sport va salomatlik, ijtimoiy, umumintellektual, umummadaniy) quyidagi shakllarda tashkil etiladi: to‘garaklar, badiiy studiyalar, sport klublari va seksiyalari, yoshlar tashkilotlari, o‘lkashunoslik ishlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, olimpiadalar, ilmiy tadqiqot va izlanuvchilik, jamiyatga foydali amaliyotlar, harbiy-vatanparvarlik birlashmalari va h.k. Darsdan tashqari faoliyatni tashkil etish shaklini ta’lim tashkilotini o‘zi mustaqil ravishda o‘quvchilar va ota-onalar (qonuniy vasiylari) ning talabi, ehtiyoj, qiziqishlarini e’tiborga olgan holda belgilaydi.

Xulosa va takliflar:

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun ularni turli faoliyat turlariga jalb qilish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi, ularning shaxsiy va kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashi, ularning qadriyatlar tizimini, faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Passiv tafakkur pozitsiyasidan ta’lim faoliyatining aktiv pozitsiyasi sub’ektiga aylanadi. Shu tariqa, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va namoyon qilish uchun zarur bo‘lgan tashqi pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qiziqishni saqlab qolish uchun demokratik munosabatlarga ega axborot bilan boyitilgan, tartibga solinmagan, rang-barang o‘quv muhitining mavjudligi;
- har bir bolaning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun maqbul sharoitlarni ta’minlaydigan ijodiy muhit;
- yosh va individual-shaxsiy xususiyatlarni ochib berish va shaxsiy-faoliyat yondashuvi asosida o‘qitishni differensiallashtirish orqali o‘quv jarayonida ularni maksimal darajada hisobga olish;
- o‘quvchining rivojlanish darajasi to‘g‘risida tezkor ma’lumot olish uchun “o‘qituvchi-talaba” munosabatlarining moslashuvchan diagnostika tizimi (ushbu tizimning turli usullari);
- ijodiy xulq-atvor va ijodiy fikrlash namunalarning mavjudligi;
- o‘qituvchi tomonidan motivatsion boshqaruv (boshqaruvda motivatsiya usuli);
- ta’lim jarayonining barcha qismlarining yuqori tashkiliyligi va o‘zaro bog‘liqligi, uning uzluksizligi, ijodiy qobiliyat va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi;
- talabalarning ijodiy qobiliyatlari va ijodiy fikrlashlarini aniqlash va rivojlantirishga kompleks yondashuv.

Ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni o‘z ichiga oluvchi tizim moslashuvchan va ko‘p darajali bo‘lishi lozimligini pedagogik jamoaga eslatib o‘tish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Торшина, К.А. Современные исследования проблемы креативности в зарубежной психологии // Вопросы психологии. — 1998. — № 4. — С.123–132.

2. Hallmann, R.J. The necessary and sufficient conditions of creativity // Creativity: its educational implications. Sidney, 1967.

3. Мамаражабов Ш.Э., Сатторов В.Н., Жабборова Г.К. Талаба шахсида креативлик сифатларини ривожлантиришнинг самарали йўллари // “Фан, таълим, ишлаб чиқариш интеграциялашуви шароитида пахта тозалаш, тўқимачилик, енгил саноат, матбаа ишлаб чиқариш инноватсион технологиялари долзарб муаммолари ва уларнинг ечими. Республика илмий-амалий анжумани маколалар тўплами. ТТЕСИ, Т. – 2018, Б.438-442.





MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

laboreconomics.uz

Muharrirlar:

Yaxshiyev H.T.

Matxo'jayev A.O.

Musahhih:

Kamilova D.J.

Tehnik muharrir:

Mirzayev J.O'.

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 31,6. Raqamli bosma.
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER

1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

19-20 OCTOBER 2023

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS,

TASHKENT, UZBEKISTAN

ФОРУМ

ICFNDS and ICDSIS"

"NEW2AN,

Parallel conferences

CONFERENCE

DEVELOPMENT STRATEGY:

GLOBAL ECONOMIC TRENDS

"IFRS" ФОРУМ

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЎНАЛИШЛАРИ. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номли конференция

"IFRS" НОМЛИ КОНФЕРЕНЦИЯ

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

- Conditions for impro
- Corporate Account
- Institutional problem
- Training personnel f
- Business environmen
- Digital technologies

PARALLEL CONFERENCES

"NEW2AN AND ICDSIS"

AND ICDSIS"



CONFERENCE

"S" CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER



100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

+998 99 881-86-98

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz

ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digit
- Gree
- Envir
- Alter
- Artifi